



**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK
AKADEMIYASI**


XALQARO MUNOSABATLAR KAFEDRASI

YANGI MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASINING SIYOSIY-IQTISODIY VA MADANIY-GUMANITAR JIHATLARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO'PLAMI

 2026-yil, 28-aprel



→ Toshkent – 2026 ←

UO'K: 327 | 5-15+7

KBK: 66/4 | 5+7

Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlarini: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami: Toshkent, 2026-yil 28-aprel / Mas'ul muharrir: PhD, dots. B.Berdiyev. – T.: O'zXIA, 2026. – 414 b.

Mas'ul muharrir:

***B. Berdiyev** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Tahrir hay'ati:

***F.Juraqulov** – siyosiy fanlar doktori, professor*

***F.Qo'ysinova** – siyosiy fanlar doktori, dotsent*

***M. Nazirov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***Sh. Akmalov** – siyosiy fanlar nomzodi, dotsent*

***N. Qalqanov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***J. Akramov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.*

***M. Xurramov** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.*

***J. Sobirov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Mazkur to'plamga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug'iga binoan O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida 2026-yil 28-aprel kuni "Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlarini" mavzusida o'tkazilgan an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari kiritilgan.

To'plam O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Ilmiy, o'quv-uslubiy kengashining 2026-yil 25-maydagi 9-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamga kiritilgan materiallar mazmuniga mualliflar mas'uldirlar.

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI VA O'ZBEKISTON: UMUMIY KELAJAK SARI STRATEGIK QADAMLAR

Rasulov Otabek Abdulazizovich,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
o'qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya (o'zbek tilida): Maqolada Markaziy Osiyo integratsiyasining zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, transport-logistika, suv-energetika, xavfsizlik va madaniy-gumanitar yo'nalishlari tahlil qilinadi. Unda O'zbekistonning mintaqadagi geografik va strategik o'rni, yaxshi qo'shnichilik, ochiqlik va pragmatik tashqi siyosat tamoyillari asosida shakllanayotgan hamkorlik jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, mintaqaviy savdo hajmining ortishi, transport koridorlarining rivojlanishi, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, xavfsizlik tahdidlariga birgalikda javob qaytarish hamda yoshlar, ta'lim va turizm sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish masalalari ochib beriladi. Muallif integratsiyani davlatlar suverenitetini cheklovchi omil emas, balki barqaror taraqqiyot, iqtisodiy raqobatbardoshlik va xalq farovonligini ta'minlovchi strategik imkoniyat sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, O'zbekiston, iqtisodiy hamkorlik, transport koridorlari, suv-energetika hamkorligi, xavfsizlik, madaniy-gumanitar aloqalar.

Аннотация (русский язык): В статье анализируются современные политические, экономические, транспортно-логистические, водно-энергетические, безопасностные и культурно-гуманитарные аспекты интеграции Центральной Азии. Особое внимание уделяется географической и стратегической роли Узбекистана в регионе, а также принципам добрососедства, открытости и прагматизма во внешней политике. Рассматриваются рост региональной торговли, развитие транспортных коридоров, рациональное использование водных и энергетических ресурсов, совместное реагирование на угрозы безопасности, а также укрепление связей в сфере молодежной политики, образования и туризма. Автор рассматривает интеграцию не как ограничение суверенитета государств, а как стратегическую возможность обеспечения устойчивого развития, экономической конкурентоспособности и благосостояния народов региона.

Ключевые слова: Центральная Азия, региональная интеграция, Узбекистан, экономическое сотрудничество, транспортные коридоры, водно-энергетическое сотрудничество, безопасность, культурно-гуманитарные связи.

Abstract (English): The article analyzes the contemporary political, economic, transport and logistics, water-energy, security, and cultural-humanitarian dimensions of Central Asian integration. It highlights Uzbekistan's geographical and strategic role in the region, as well as the principles of good-neighborliness, openness, and pragmatism shaping its regional policy. The paper discusses the growth of intra-regional trade, the development of transport corridors, the rational use of water and energy resources, joint responses to security challenges, and the strengthening of youth, education, and tourism cooperation. The author argues that integration should not be viewed as a limitation of state sovereignty, but as a strategic opportunity to promote sustainable development, economic competitiveness, and the well-being of the peoples of Central Asia.

Keywords: Central Asia, regional integration, Uzbekistan, economic cooperation, transport corridors, water-energy cooperation, security, cultural and humanitarian relations.

Markaziy Osiyo bugun jahon siyosatida tobora muhim o'rin egallayotgan mintaqalardan biriga aylanmoqda. Bu hudud faqat xaritada besh davlat - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston yig'indisi emas. Markaziy Osiyo - umumiy tarix, o'xshash madaniyat, yaqin tillar, o'zaro bog'langan iqtisodiyot, suv va energiya manbalari, transport yo'laklari hamda xavfsizlik manfaatlari bilan bog'langan yagona geosiyosiy makondir. Shu ma'noda, mintaqaviy integratsiya bugun siyosiy shior emas, balki taraqqiyot, barqarorlik va raqobatbardoshlikning amaliy sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston ushbu jarayonning tabiiy markazida turibdi. Geografik jihatdan mamlakat Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan chegaradosh. Bu holat O'zbekistonga mintaqadagi bog'lovchi davlat maqomini beradi. Bir tomondan, mamlakatning chegaralari, transport tarmoqlari, bozorlari va mehnat resurslari qo'shni davlatlar bilan chambarchas bog'liq. Ikkinchi tomondan, so'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, yaxshi qo'shnichilik, pragmatizm va mintaqaviy ishonchni mustahkamlash tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda ⁷⁰.

Markaziy Osiyo integratsiyasining mohiyati davlatlarning mustaqilligini cheklashda emas, balki ularning suveren taraqqiyotini kuchaytirishdadir. Global raqobat sharoitida yakka holda harakat qilish ko'p hollarda yetarli natija bermaydi. Yirik bozorlarga chiqish, xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish, energetika xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat barqarorligi va iqlim o'zgarishiga moslashish kabi masalalar bir davlat doirasida hal bo'lmaydi. Shuning uchun mintaqa davlatlari

⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти расмий сайти. The seventh Consultative Meeting of the Heads of State of Central Asia. 16.11.2025. URL: <https://president.uz/en/lists/view/8677> (мурожаат санаси: 03.06.2026).

raqobatdan ko'ra hamkorlikni, qisqa muddatli manfaatdan ko'ra uzoq muddatli strategik sheriklikni ustuvor yo'nalishga aylantirishi zarur.

So'nggi yillarda mintaqa davlatlari o'rtasidagi siyosiy muloqot sezilarli darajada faollashdi. Davlat rahbarlari maslahat uchrashuvlari, ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar, chegara masalalaridagi ijobiy siljishlar, transport va savdo yo'nalishlaridagi qo'shma loyihalar yangi siyosiy muhit shakllanayotganini ko'rsatadi. 2025 yil noyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan yettinchi maslahat uchrashuvi doirasida mintaqaviy hamkorlikni institutsional jihatdan kuchaytirish va Ozarbayjonni ushbu formatga to'laqonli ishtirokchi sifatida qo'shish masalalari muhokama qilindi⁷¹. Bu holat Markaziy Osiyoning o'ziga ishonchi ortib borayotganini anglatadi.

O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo bilan integratsiya tashqi siyosiy tanlov emas, balki milliy taraqqiyotning tabiiy shartidir. Qo'shni davlatlar bilan barqaror va ishonchli munosabatlarsiz iqtisodiy o'sish, investitsiyaviy jozibadorlik, transport ochiqligi va xavfsizlikni ta'minlash qiyin. Shuning uchun O'zbekistonning mintaqaviy siyosatida «yetakchilik da'vosi»dan ko'ra «ishonchli bog'lovchi» bo'lish g'oyasi muhimroqdir. Bunday yondashuv qo'shnilar o'rtasida raqobat emas, balki o'zaro ishonch va umumiy manfaatni kuchaytiradi.

Integratsiyaning birinchi muhim yo'nalishi - iqtisodiy hamkorlikdir. Markaziy Osiyo davlatlari bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy imkoniyatlarga ega. Qozog'iston neft, metallurgiya va don mahsulotlari bilan, Qirg'iziston va Tojikiston gidroenergetika salohiyati bilan, Turkmaniston gaz resurslari bilan ajralib turadi. O'zbekiston esa aholi soni, ichki bozor, sanoat, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, avtomobilsozlik va xizmatlar sohasida katta imkoniyatlarga ega. Agar ushbu salohiyatlar o'zaro bog'lansa, mintaqa tashqi bozorlar uchun ham raqobatbardosh iqtisodiy makonga aylanadi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo hajmi yildan-yilga ortib borayotgani integratsiyaning amaliy natijasini ko'rsatadi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotiga ko'ra, 2025 yilda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 8,3 mlrd AQSH dollariga yetgan va bu mamlakat tashqi savdosining 10,2 foizini tashkil etgan⁷². Bu raqamlar ortida minglab tadbirkorlar, yuk tashuvchilar, fermerlar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaati turibdi. Chegaradan o'tish tezlashsa, mahsulot tannarxi

⁷¹ Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази. Uzbekistan's Trade with Central Asian Countries in 2025. URL: <https://review.uz/en/post/infografika-torgovlya-uzbekistana-so-stranami-centralnoy-azii-v-yanvare-2025-goda> (мурожаат санаси: 03.06.2026).

⁷² OECD. Enhancing the Competitiveness of the Trans-Caspian Transport Corridor in Central Asia: Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/en/publications/2025/11/enhancing-the-competitiveness-of-the-trans-caspian-transport-corridor-in-central-asia_e989025f/full-report/uzbekistan_ba1d1189.html (мурожаат санаси: 03.06.2026).

pasayadi; bojxona jarayonlari raqamlashsa, korrupsiya va ortiqcha xarajatlar kamayadi.

Ikkinchi yo'nalish - transport va logistikadir. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Bu tashqi savdoda transport xarajatlarini oshiradi va mahsulot raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi. Shu sababli Transkaspiy yo'nalishi, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li, O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston transport koridori, Qozog'iston va Turkmaniston orqali xalqaro yo'nalishlar strategik ahamiyatga ega. OECD tahlillarida ham Markaziy Osiyo uchun savdo va transport bog'liqligini kuchaytirish mintaqaviy integratsiyaning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi.

Transport integratsiyasi faqat temir yo'l yoki avtomobil yo'li qurish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon yagona tarif siyosati, elektron hujjat aylanmasi, bojxona ma'lumotlarini o'zaro almashish, logistika markazlari, chegara punktlarini modernizatsiya qilish va yuk tashishda shaffof qoidalarni ham talab qiladi. Agar mintqa mamlakatlari bu sohada kelishilgan siyosat yuritsa, Markaziy Osiyo Yevroosiyo qit'asida Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'lovchi muhim transport markaziga aylanishi mumkin⁷³.

Uchinchi muhim yo'nalish - suv-energetika hamkorligidir. Markaziy Osiyoda suv masalasi tarixan eng nozik mavzulardan biri hisoblanadi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari bir nechta davlatlar hayoti, qishloq xo'jaligi, energetikasi va ekologiyasi bilan bog'liq. Yuqori oqimda joylashgan davlatlar suvdan asosan energiya ishlab chiqarish uchun foydalanishga manfaatdor bo'lsa, quyi oqimdagi davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun sug'oriladigan dehqonchilik va oziq-ovqat xavfsizligi ustuvor ahamiyatga ega. Shuning uchun bu masalada ziddiyat emas, muvozanatli hamkorlik zarur⁷⁴.

Suv-energetika integratsiyasi mintaqaning kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qishda elektr energiyasiga talab ortadi, yozda esa suvga ehtiyoj kuchayadi. Agar davlatlar mavsumiy manfaatlarni kelishilgan holda muvofiqlashtirsa, barcha tomonlar foyda ko'radi. OECDning suv-energetika hamkorligiga oid tahlilida "samarali suv va energiya muvofiqlashuvi" Markaziy Osiyo mamlakatlarining resurslardan oqilona foydalanishi va ekologik barqarorlikni ta'minlashi uchun zarur ekani ta'kidlanadi. Jahon bankining CAWEP dasturi ham suv va energiya xavfsizligi bo'yicha mintaqaviy hamkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan.

⁷³ World Bank. Central Asia Water & Energy Program (CAWEP). URL: <https://www.worldbank.org/en/region/eca/brief/cawep> (murojaat sanasi: 03.06.2026).

⁷⁴ OECD. Strengthening the Water-Energy Nexus for a Climate Resilient Central Asia. Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/12/strengthening-the-water-energy-nexus-for-a-climate-resilient-central-asia_d0007594/632162c2-en.pdf (murojaat sanasi: 03.06.2026).

Energetika sohasida mintaqaviy elektr bozorini shakllantirish ham dolzarb vazifadir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyoda elektr energiyasi savdosini kengaytirish, uzatish quvvatlarini oshirish va qayta tiklanuvchi energiyani tizimga integratsiya qilish mintaqaning energetik barqarorligini kuchaytirishi mumkin⁷⁵. Bu nafaqat qish mavsumidagi tanqislikni kamaytirish, balki sanoat, qishloq xo'jaligi va aholi ehtiyojlarini uzluksiz ta'minlash uchun ham muhim.

To'rtinchi yo'nalish - xavfsizlikdir. Markaziy Osiyo Afg'oniston bilan qo'shni, shuningdek yirik geosiyosiy kuchlar manfaatlari kesishgan hududda joylashgan. Terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, odam savdosi, kiberxavflar va noqonuniy migratsiya kabi tahdidlar bir davlat chegarasi bilan cheklanmaydi. Bunday sharoitda mintaqaviy xavfsizlik tizimi harbiy hamkorlikdan tashqari axborot almashinuvi, chegara nazorati, iqtisodiy barqarorlik, yoshlar siyosati va mafkuraviy immunitetni ham o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston bu borada muvozanatli yondashuv tarafdori. Mamlakat Afg'onistonni faqat xavfsizlik muammosi sifatida emas, balki mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka jalb etilishi mumkin bo'lgan muhim qo'shni sifatida ko'radi. Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish, transport yo'laklarini kengaytirish va energetika loyihalarini amalga oshirish O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo uchun strategik ahamiyatga ega. Albatta, bu jarayon ehtiyotkorlik, xalqaro muvofiqlashuv va xavfsizlik kafolatlarini talab qiladi.

Beshinchi yo'nalish - madaniy-gumanitar integratsiyadir. Davlatlar o'rtasidagi siyosiy kelishuvlar qanchalik muhim bo'lmasin, haqiqiy yaqinlik xalqlar o'rtasida shakllanadi. Markaziy Osiyo xalqlari asrlar davomida bir-biri bilan savdo qilgan, ilmfan, adabiyot, san'at va hunarmandchilik sohalarida o'zaro ta'sirda yashagan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Turkiston, O'sh, Dushanbe va Marv kabi tarixiy markazlar umumiy sivilizatsiya xotirasining bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun integratsiya ta'lim, turizm, madaniyat va yoshlar almashinuvisiz to'liq bo'la olmaydi.

Ayniqsa, yoshlar siyosati mintaqaning kelajagini belgilaydi. UNICEFning "Generation 2050 in Central Asia" hisobotida 2025-2050 yillar oralig'ida bolalar, o'smirlar va yoshlar salohiyatini rivojlantirish mintaqaning demografik dividenddan foydalanishi uchun muhim omil sifatida baholanadi. Demak, qo'shma universitet dasturlari, talabalar almashinuvi, ilmiy markazlar, yoshlar forumlari va madaniy loyihalar integratsiyaning "yumshoq kuchi" vazifasini bajaradi.

Turizm sohasida ham katta imkoniyatlar mavjud. "Bir mintaq - bir yo'nalish" tamoyili asosida xorijiy sayyohlar uchun Toshkent, Samarqand, Buxoro, Olmaota,

⁷⁵ UNICEF. Generation 2050 in Central Asia: Regional Report. Geneva: UNICEF, 2025. URL: <https://www.unicef.org/eca/media/42726/file/Generation%202050%20in%20Central%20Asia.pdf> (мурожаат санаси: 03.06.2026).

Bishkek, Dushanbe va Ashxobodni qamrab olgan mintaqaviy marshrutlarni rivojlantirish mumkin. Bu nafaqat xizmatlar eksportini oshiradi, balki xalqlar o'rtasidagi muloqotni ham kuchaytiradi. Mintaqa o'zini alohida-alohida emas, yagona tarixiy-madaniy makon sifatida taqdim etsa, xalqaro turizm bozoridagi jozibadorligi yanada ortadi.

Shu bilan birga, integratsiya yo'lida muammolar ham mavjud. Milliy qonunchiliklar va bojxona tartiblari o'rtasidagi farqlar biznes uchun to'siq bo'lib qolmoqda. Ayrim transport yo'laklarida infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan. Suv-energetika masalasida barcha tomonlarni qoniqtiradigan barqaror mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan. Mintaqada tashqi kuchlar ta'siri ham bor. Bu esa davlatlardan oqilona, muvozanatli va mustaqil siyosat yuritishni talab qiladi.

Markaziy Osiyo integratsiyasi kelajakda institutsional jihatdan yanada mustahkamlanishi mumkin. Bu mintaqaviy kengashlar, investitsiya jamg'armalari, sanoat kooperatsiyasi dasturlari, transport va energetika bo'yicha doimiy ishchi guruhlar, raqamli savdo platformalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ammo har qanday institutning samarasi, avvalo, siyosiy ishonchga bog'liq. Agar davlatlar bir-birini raqib emas, sherik sifatida ko'rsa, mintaqaviy tuzilmalar ham hayotiy va samarali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo integratsiyasi - tarixiy zarurat, iqtisodiy ehtiyoj va siyosiy imkoniyatdir. O'zbekiston uchun bu jarayon milliy manfaatlariga to'la mos keladi. Qo'shnilar bilan tinch, barqaror va ochiq munosabatlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradi, xavfsizligini mustahkamlaydi, xalqaro nufuzini oshiradi va xalq farovonligiga xizmat qiladi. Integratsiyaning haqiqiy qadri u davlat hujjatlarida emas, balki odamlar hayotida - arzon logistika, keng bozor, barqaror energiya, xavfsiz chegara va boy madaniy aloqalarda namoyon bo'ladi.

Bugun Markaziy Osiyo yangi tarixiy bosqich ostonasida turibdi. Agar besh davlat o'zaro ishonchni saqlab qolsa, iqtisodiy to'siqlarni kamaytirsas, suv va energetikada adolatli muvozanat topsa, transport yo'laklarini birgalikda rivojlantirsas va xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni kuchaytirsas, mintaqa XXI asrning eng istiqbolli makonlaridan biriga aylanadi. Bu yo'lda O'zbekistonning roli katta: u tashabbuskor, mas'uliyatli va ishonchli hamkor sifatida umumiy kelajakni barpo etishga hissa qo'shishi lozim.

Markaziy Osiyoning kuchli kelajagi raqobatda emas, hamkorlikda; yopiqlikda emas, ochiqlikda; alohida-alohida harakatda emas, mushtarak manfaatlarni anglashdadir. Integratsiya - mintaqaning siyosiy imtihoni, iqtisodiy imkoniyati va xalqlar farovonligiga olib boruvchi eng muhim yo'ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. The seventh Consultative Meeting of the Heads of State of Central Asia. 16.11.2025. URL: <https://president.uz/en/lists/view/8677>.
2. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Uzbekistan's Trade with Central Asian Countries in 2025. URL: <https://review.uz/en/post/infografika-torgovlya-uzbekistana-so-stranami-centralnoy-azii-v-yanvare-2025-goda>.
3. OECD. Enhancing the Competitiveness of the Trans-Caspian Transport Corridor in Central Asia: Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/en/publications/2025/11/enhancing-the-competitiveness-of-the-trans-caspian-transport-corridor-in-central-asia_e989025f/full-report/uzbekistan_ba1d1189.html.
4. World Bank. Regional Electricity Market Interconnectivity and Trade. Washington, DC: World Bank, 2025. URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099111925105131781>.
5. World Bank. Central Asia Water & Energy Program (CAWEP). URL: <https://www.worldbank.org/en/region/eca/brief/cawep>.
6. OECD. Strengthening the Water-Energy Nexus for a Climate Resilient Central Asia. Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/12/strengthening-the-water-energy-nexus-for-a-climate-resilient-central-asia_d0007594/632162c2-en.pdf.
7. UNICEF. Generation 2050 in Central Asia: Regional Report. Geneva: UNICEF, 2025. URL: <https://www.unicef.org/eca/media/42726/file/Generation%202050%20in%20Central%20Asia.pdf>.

XAYRULLAYEV Z. Markaziy Osiyoda islom dini g'oyalari radikallashuvining ijtimoiy-siyosiy tendensiyalari	278
HAMIDOV B. Xitoy diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari	288
ELMURODOV J. Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlariga Qozog'iston va Tojikiston Respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligining ta'siri	297
MA'MIROVA O. Davlat va mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari tizimini nomarkazlashtirishning O'zbekiston tajribasi	307
ОТАЙБИ С. Основные направления деятельности Шанхайской организации сотрудничества	314
SHARIPOVA D. Mintaqaviy integratsiya jarayonlari borasidagi konseptual asoslar	321
ТИЛЛЯБАЕВА Г. Халқаро муносабатларда зиёрат феномени	328
ZOIROVA M. Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasi sharoitida siyosiy tizim legitimligini mustahkamlashning zamonaviy texnologiyalari	332
NAIMJONOVA Z. Markaziy Osiyo mintaqasida migratsiya jarayonlarining geosiyosiy omillari va ularning mintaqaviy integratsiyaga ta'siri	341
CHORIYEVA D., BERDIYEV B. O'zbekistonning Markaziy Osiyo bilan transport-logistika integratsiyasi	349
AMONOVA Y., KARIMOV F. Eron bilan bog'liq geosiyosiy ziddiyatlar sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasining siyosiy-iqtisodiy holati	356
ERGASHOV Z., QOLQANOV N. Markaziy Osiyo global kuchlar kesishuvida: Rossiya-AQSH-Xitoy uchburchagi va integratsiya kelajagi	364
SADULLAYEVA L. O'zbekistonning Markaziy Osiyo bilan transport-logistika hamkorligi: BRI doirasida	371
OTABOYEVA M., QO'YSINOVA F. Markaziy Osiyo integratsiyasining madaniy-gumanitar asoslari (Turkiya tahliliy qarashlari prizmasida)	375
QUROLBOYEVA M. Parlament institutining shakllanishi va siyosiy qaror qabul qilishdagi evolyutsiyasi	383
NORBO'TAYEV I., NAZIROV M. Markaziy Osiyoda ilk integratsiya tajribasi: omillari va inqiroz sabablari	389
Mirzavaliyev J. Davlat xizmatini isloh qilishda "raqamli meritokratiya" modelining o'ziga xos xususiyati	394
Rasulov O. Markaziy Osiyo integratsiyasi va O'zbekiston: umumiy kelajak sari strategik qadamlar.....	403